



XALQARO XUSUSIY HUQUQNING SUBYEKTI SIFATIDA JISMONIY SHAXSNING HUQUQIY HOLATI

Rustamov Xojiakbar Raufjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xususiy huquqi fakulteti 4-kurs talabasi

E-mail: rustamovhoji91@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10091153>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-November 2023 yil

Ma'qullandi: 04- November 2023 yil

Nashr qilindi: 08-November 2023 yil

KEY WORDS

*konvensiya, arbitraj,
kallitsiya, kollizia, pratakol,
muqobilik.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada xususiy xalqaro huquqning subyekti sifatida jismoniy shaxsning huquqiy xolatini tahlil qilamiz. Xalqaro xususiy huquq subyekti sifatida jismoniy shaxslarni tahlil qilish orqali ularning milliy huquqdagi subyektlardan farqli va o'ziga xos xususiyatlarini shu bilan birga Chet el fuqarolari huquqiy holatining umumiy masalalari yoritib o'tishga harakat qilamiz. O'zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining fuqarolik huquq layoqati va muomala layoqati. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet eldagi huquq layoqati. Bir mamlakat fuqarosining boshqa mamlakat fuqarosi bilan o'zaro ijtimoiy, iqtisodiy munosabatga kirishishi natijasida ular o'rtasida xalqaro huquqning obyektiv masalalari vujudga kelishi mumkin. Xalqaro xususiy huquqda vujudga keladigan barcha munosabatlar subyektlarning bevosita yoki bilvosita ishtiroki oqibatida vujudga keladi. Mamlakatimizda o'tqazilinayotgan keng qamrovli islohatlar va mamlakatimizning keng hamjamiyat oldida ochiq, oshkora siyosat yuritishi, boshqa mamlakatlarga nisbatan do'stona bag'rikenlikka asoslangan siyosatning olib borishi natijasida kundan kunga xalqaro xususiy huquqning qamrovi kengayib bormoqda. Bunday vaziyatda xalqaro xususiy huquqda subyektlar masalasi, ularning huquq va layoqat masalalari, huquq chegarasi, erkinlik masalalarini aniq belgilab olish lozim.

Xalqaro xususiy huquqda subyektlar: jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, davlatlar va boshqa xususiy tashkilotlar bo'lishi mumkin. Jismoniy shaxslar huquqiy shaxslar sifatida taniladi va ularning shaxsiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy huquqlari himoya qilinadi. Misol uchun, jismoniy shaxslarning hayotini himoya qilish, ish bilan bog'liq huquqlari, siyosiy

faoliyatda ishtirok etish huquqlari kabi xususiy huquqlariga ega bo'lishi mumkin.

Xalqaro xususiy huquqda subyektlar yuridik shaxslar sifatida ham tanilishi mumkin. Yuridik shaxslar, masalan, korxonalar yoki tashkilotlar bo'lishi mumkin va ularning moliyaviy, iqtisodiy va boshqa huquqlari himoya qilinadi. Davlatlar ham xalqaro xususiy huquq subyektlari hisoblanadi. Ularning boshqa davlatlar bilan diplomatik munosabatlari, hududlari va mamlakatlararo munosabatlari xalqaro xususiy huquqning bir qismi hisoblanadi. Boshqa xususiy tashkilotlar ham xalqaro xususiy huquq subyektlari bo'lishi mumkin. Masalan, xalqaro tashkilotlar, non-governmental tashkilotlar va boshqa transnatsional tashkilotlar xalqaro xususiy huquqda faoliyat ko'rsatishi mumkin va ularning huquqlari himoya qilinadi. Shunga ko'ra, xalqaro xususiy huquq subyektlari jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar, davlatlar va boshqa xususiy tashkilotlar bo'lishi mumkin va ularning huquqlari va murojaatlari xalqaro standartlarga muvofiq himoya qilinadi.

Xalqaro xususiy huquq xususiy huquq yuridik sohaning bir qismi sifatida yuridik fan olimlari tomonidan keng yoritib o'tilinadi. Xalqaro munosabatlarning turli xil ko'rinishlarda vujudga kelishi natijasida xususiy, aytish mumkinki, fuqarolik huquqi va fuqarolik protsessual huquqi bilan tartibga solinadigan normativ huquqiy hujjatlarga bevosita bog'liq hisoblanadi. Xalqaro xususiy huquq shu bilan birga ijtimoiy munosabatlarning boshqa ko'rinishlarini yani: oilaviy, mehnat, tadbirkorlik, iqtisodiy protsessual munosabatlarni ham qamrab olgan. Xalqaro xususiy huquqda ijtimoiy munosabatlarning boshqa-boshqa fuqarolikga ega bo'lgan fuqarolari va xo'jalik tashkilotlar o'rtasida paydo bo'lishi va yuridik ahamiyat kasb etishi, yuridik faktlarni taqazo etishi yoki vujudga keltirishi, o'zgartirishi va bekor qilishni tartibga solinishi shu bilan birga taraflar o'rtasida muammo vujudga kelganida unga yechim berishda o'siga xos bo'lgan xususiyatlarga ega hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining fuqarosi boshqa davlat fuqaroligi bo'lgan shaxs bilan o'zaro munosabatga kirishishi natijasida vujudga keladigan xalqaro huquq elementi bilan murakkablashganligi natijasida vujudga keladigan munosabat natijasida Xalqaro xususiy huquq obyekti vujudga keladi. Mamlakatimiz Fuqarolik kodeksi 1158-moddasida xalqaro xususiy huquq normalari bilan tartibga solinadigan munosabatlar chet el elementi bilan murakkablashgan fuqarolik-huquqiy munosabatlar sifatida ta'rif sifatida yquroridagi keltirilgan jumalarning yig'indisi deyishimiz mumkin. Shu bilan birga jamiyatning ijtimoiy hayotida misollar bilan fikrimizni mustahkamlashga harakat qilamiz, avvalo, chet el elementi bilan murakkablashgan ijtimoiy munosabatlarning vujudga kelishi turli ko'rinishlarda yuzaga kelishi mumkin. Bularga: chet el huquqi subyektlarining boshqa boshqa davlatlarning fuqaroligiga ega bo'lgan holda o'zaro munosabatga kirishishi natijasida, obyektlar, yani munosabatlarning vujudga kelishi uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi va taraflar tomonidan yuridik fakt yoki yuridik boshqa xususiyatlarni vujudga keltiruvchi xalqaro chet el elementining murakkablashuvi bir qismi sifatida bahalanuvchi xalqaro xususiy huquq obyekti boshqa-boshqa davlatlarda joylashuvi yoki mavjud bo'lishi natijasida, ishlashi yoki baholanishi natijasida hamda chet el elementi bilan murakkablashgan huquq subyektlarining o'zaro munosabatlari o'zgarishi, vujudga kelishi, bekor bo'lishi va buzilishi natijasida paydo bo'luvchi yuridik munosabatlarga nisbatan yoqoridagi normani qo'llash doirasi deyishimiz mumkin bo'ladi.

Chet el elementi bilan murakkablashishi natijasida yuzaga keluvchi Xalqaro xususiy huquqda jismoniy shaxslarning xo'jalik yurituvchi, yuridik shaxs sifatida tadbirkorlik subyekt

bo'la oladigan yoki muassasa,tashkilot, jamiyatning qolgan ko'rinishi bo'la oladigan birlashmalar jismoniy shaxslarga nisbatan huquq va muomila layoqati jihatidan farqli ko'rinishga ega hisoblanadi.

Xalqaro xususiy huquqda jismoniy shaxslar huquq layoqati, ularning shaxsiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy huquqlarini olishi va ulardan foydalanishi bilan bog'liqdir. Bu huquqlar jismoniy shaxslarning hayotini himoya qilish, ish bilan bog'liq huquqlari, siyosiy faoliyatda ishtirok etish huquqlari kabi xususiy huquqlarni o'z ichiga oladi. Jismoniy shaxslar xalqaro xususiy huquqning asosiy subyektlari hisoblanadi va ularning huquqlari xalqaro standartlarga muvofiq himoya qilinadi.

Misol uchun,jismoniy shaxsga nisbatan ham yuridik shaxsga nisbatan ham qo'llaniladigan tarif yani fuqarolik munosabatiga kirisha oladigan,turli davlatlarning xalqaro xususiy huquq subyektlari yani turli davlatlarga mansub subyektlar: o'zaro tovarlar,ishlar,xizmat ko'rsatish faoliyatini ko'zlagan holda o'zaro shartnoma tuzishlari mumkin; tashqi iqtisodiy shartnomalarning tuzilishi natijasida yuzaga kelishi natijasidan tartibga solish maqsadida tuziladigan xalqaro shartnomalar,odat normalari,ichki normalarni,kaolizion normani aniqlab olish uchun bitim qo'llanish doirasini aniqlash ishlarini amalga oshirishi mumkin.Yuqoridagi munosabatlarda jismoniy shaxslardan ham yuridik shaxslardan ham tashqi iqtisodiy bitimlarni yozma tarzda tuzilishi shart etib belgilab berilgan.Shu bilan birga chet el valyutasida muomila qilinishi mumkin,bojhona talablariga rioya qilinishi,nizo kelib chiqqanda taraflar avvalo kelishuv yo'lida harakat qilishlari,xalqaro xususiy huquqning tenglik ,shaffoflik pribsiplariga tayangan holda taraflar o'rtasida munosabatga olib borilishi kerak.Xalqaro xususiy huquqda jismoniy shaxslarning javobgarlik masasalasi,ular o'rtasida bir-birlarining huquqlarini buzilishi natijasida yuzaga keladigan muommoli vaziyatlarga nisbatan Xalqaro xususiy huquqda subyektlar o'zaro muzokaralar orqali muammolarini hal qilish uchun qo'llanadigan huquqni va yurisdiksiyani tanlashga ega bo'ladi, shuningdek xalqaro shartnomalar va kelishmalar imzolashlari mumkin. Ularga xalqaro xususiy huquq munosabatlari bo'yicha xalqaro standartlar va tartibotlarni hurmat qilishlari ham zarurdir. Shunday qilib, xalqaro xususiy huquq subyektlari xalqaro munosabatlarda barqarorlik va oldindan ko'rishuvni ta'minlashda muhim rol o'ynaydilar. Bu xalqaro huquqda o'rnatilgan jumladan kelib chiqadigan bo'lsak,yuridik shaxs va jismoniy shaxslarning huquq va muomila layoqatlari o'zaro o'xshash hisoblandi.

O'rganishlardan xulosa qiladigan bo'lsak, xalqaro xususiy huquq predmetini tashkil qiluvchi va qamrab oluvchi normativ huquqiy hujjatlar vositasida tartibga solinadigan xalqaro ko'rinish kasb etadigan munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari ularda boshqa davlat subyektlarining qatnashishi, munosabat obyektlarining o'zga davlat hududida bo'lishi, munosabatlarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan yuridik faktlarning boshqa davlat hududida sodir bo'lishi bilan ifodalanadi.Shu bilan birga, bir yoki necha tavlrat fuqaroligida bo'lgan subyektlar tomonidan o'zaro mehnat,oila va shu kabi xalqaro xususiy huquqning qamrov doirasida bo'lgan ijtimoiy munosabatlar doirasida tuziladigan bitimlar,pratakol va kelishuvning boshqa har qanday ko'rinishlari yozma tarzda tuzilishi shart.Taraflar o'rtasida xat xabarlar yozishlamari olib borilgan bo'lsa yozma tarzda kelishuvga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.Boshqa davlatlar huquq tizimining huquq subyektlari bilan yo'lga qo'yilgan munosabatlarni tartibga solishda umumiy huquqiy tushunchalar asosiy masala xisoblanadi. Kollizion normalar chet el huquq tizimi hamda shu tizim asosida vujudga kelgan subyektiv

huquqlarining chegaralangan bo'lishiga qaratiladi. Shu sababli ushbu normalar o'z mazmuniga ko'ra tegishli huquq tizimlariga nisbatan umumiy bo'lgan atamalar, tushunchalar bilan belgilanadi.

Xalqaro xususiy huquqning umumiy normalariga e'tibor bersak, yuridik shaxs va jismoniy shaxslarga nisbatan milliy qonunchilikka nisbatan umumiyroq yondashuv mavjud xisoblanadi.

Yuridik shaxslarning huquqiy layoqati to'g'risida fikr yuritar ekanmiz, uning huquq subyekti sifatida o'ziga xosligi, jismoniy shaxs, davlat va boshqa huquq subyektlaridan farqlab turuvchi xususiyatlarini aniqlashga harakat qilishni o'rinli deb topdik. Uydirma nazariyasi XIX asr nemis yuristi K.F.Savini nomi bilan bog'liqdir. Bu nazariya huquqning haqiqiy subyekti sifatida faqat insonni tan oladi. Shunga qaramasdan pozitiv huquq huquqqa layoqati bo'lgan shaxslarning doirasini toraytirishi yoki, aksincha, sun'iy huquq subyektlarini tashkil qilish evaziga, uni kengaytirishi mumkin. Bunga binoan yuridik shaxs oddiy uydirma orqali tuzilgan sun'iy huquq subyektidir. Mazkur subyekt maxsus yuridik maqsadlar uchun tuziladi. Bu yerda yuridik shaxsning huquqiy munosabatlarida huquq subyektligining yagona egalari jismoniy shaxslar real qatnashchilari bo'la oladilar. Yuridik shaxs oddiy uydirma sifatida layoqatli emasdir.¹

Jismoniy shaxslarga nisbatan qo'llanishi nazarda tutilgan xalqaro xususiy huquqdagi umumiy huquq davlatlari (Avstraliya, Buyuk Britaniya, AQSH va b.), kontinental Yevropaning ayrim davlatlari, Lotin Amerikasining ko'pgina davlatlari va bir qator boshqa davlatlarda qabul qilingan shaxsning shaxsiy maqomi uning yashash joyi (domitsiliy) yoki turar joyi (qoidaga ko'ra doimiy yoki oddiy yashash joyining mavjud emasligida) qonuni bilan belgilanadi. Ko'rsatilgan mamlakatlarda domitsiliy universal kollizion bog'lovchi bo'lib xizmat qiladi, chunki u jismoniy shaxs biron-bir fuqarolikka ega bo'lish, bo'lmasligidan qat'i nazar, qollanishi lozim bo'lgan huquqni aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, agar shaxs bir necha mamlakatlarda yashash joyiga ega bo'lsa, u eng uzviy bog'liq bo'lgan mamlakatni aniqlash uchun qo'shimcha bog'lovchilarni qo'llash zarur. Ular orasida ushbu shaxsning fuqaroligi bo'lishi mumkin. Ta'kidlab olish joizki, Lotin Amerikasi davlatlarida jismoniy shaxsning shaxsiy qonuni masalalarini tartibga solishda qollanishi lozim bo'lgan huquqni tanlash masalasiga yakdil yondashuvning yo'qligini inobatga olgan holda 1928 yilgi Bustamante kodeksi ushbu maqsadda fuqarolik qonuni yoki yashash joy qonunini qollashni hal qilishda, ishtirokchi davlatlarning huquqini nazarda tutadi².

Xulosa o'rnida chet el elementi bilan murakkablashishi natijasida bir fuqaroning boshqa davlat fuqaroligiga ega bo'lgan subyekt bilan o'zaro munosabatga kirishishi natijasida xalqaro xususiy huquqning subyektlari yani jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida xalqaro xususiy huquqning obyektleri vujudga kelishi mumkin. Subyektlar o'rtasidagi munosabatning huquq va muamila layoqatining milliy qonunchilikdan eng katta farqlaridan biri "muqobillik" asosida o'zi uchun taraflarning kelishuvi orqali maqbul qonunchilikni tanlash imkonining vujudga kelishidir. Yani agar ikki fuqarolik asosida nikoh tuzilishi natijasida xalqaro xususiy huquq obyektining vujudga kelishi va uning oqibatleri taraflarning xohish irodasi, tanlovi asosida istalgan qonunchilik asosida yechim berilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

¹ Xalqaro xususiy huquq: Darslik. / Mualliflar jamoasi // y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. 85- bet.

² Xalqaro xususiy huquq: Darslik. / Mualliflar jamoasi // y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. 85- bet.

1. .Yurist axbarotnomasi xuquqiy,ijtimoiy ilmiy jurnali6 (2020) DOI
<http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2020-6>
2. Toshkent davlat yuridik institute axbarotnomasi.2-son.2011-yil.
3. Xalqaro xususiy huquq: Darslik. / Mualliflar jamoasi // y.f.d., dots. I.Rustambekov umumiy tahriri ostida. 85- bet.
4. Fuqarolik kodeksi.
5. Lex.uz



INNOVATIVE
ACADEMY